

## LACTUCA SATIVA SALATNING KELIB CHIQISHI, TARQALISHI, MORFOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Iminjonov Javohirmirzo Jamoliddin o'g'li**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
1-bosqich magistranti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada Lactuca Sativa salatining kelib chiqishi, tarqalishi, va uning biologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu salat vitaminlarga mineral tuzlarga, oqsil, uglevodlar, organik birikmalarga juda boy. Uni muntazam iste'mol qilib borish natijasida qon bosimini pasaytirishda, ichak kasalliklari oshqozon yarasini davolashda xamda buyrakdagi toshlarni maydalashda katta yordam beradi. Tarkibida Laktusin moddasi ko'p bo'lganligidan nerv hastaliklarini davolashda katta ahamiyatga ega. Salat bir yillik o'simlik bo'lib, tez pishar, hamda sovuqqa chidamli, chetdan changlanuvchi, serxosil o'simlik xisblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *salat, vitamin, mineral tuzlar, oqsil, uglevodlar, organik birikmalar, dorivor o'simlik, Salat o'simligini ekish, yetishtirish, sug'orish, o'g'itlash, parvarishlash va xosilni yig'ishtirish, seleksiya ishlari.*

**Аннотация:** *В этой статье рассматривается происхождение, распространение и биологические особенности салата lactuca Sativa. Этот салат очень богат витаминами, минеральными солями, белками, углеводами, органическими соединениями. Его регулярное употребление может иметь большое значение для снижения артериального давления, лечения язв при кишечных заболеваниях и разрушения камней в почках. Благодаря высокому содержанию лактуцина он имеет большое значение при лечении нервных расстройств. Салат - однолетнее растение, быстро созревающее, а также морозоустойчивое, опыляемое со стороны, пышное растение.*

**Ключевые слова:** *салат, витамины, минеральные соли, белок, углеводы, органические соединения, лекарственное растение, посадка салата, выращивание, полив, удобрение, уход и сбор урожая, селекционная работа.*

### ASOSIY QISM

Salatning lotincha nomi (Lactuca sativa) murakkabguldoshlar oilasiga mansub, salat parhez taom bo'lib, tarkibida S, Y va K vitaminlarga mineral tuzlarga, oqsil, uglevodlar, organik birikmalarga juda boy.

Salat qadimdan Misrda dorivor o'simlik sifatida greklar iste'mol qilishgan. Uni muntazam iste'mol qilib borish natijasida qon bosimini pasaytirishda, ichak kasalliklari oshqozon yarasini davolashda xamda buyrakdagi toshlarni maydalashda katta yordam beradi. Tarkibida Laktusin moddasi ko'p bo'lganligidan nerv hastaliklarini davolashda katta ahamiyatga ega. Salat bargi tarkibida 1,2-2,3 mg % oqsil, 0,4-1,2 % qand, 32 % mg kaliy tuzi,

108 % mg kalsiy, 38 % mg , 2,2 % uglevod V1-vitamin, V2-riboflovini, RR-nikatini kislota, R-rutin, A-korotin, ye-takoferol va K1-fillixekon va boshqa moddalar bo'lib, ishtaxani ochadi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Salatda Y va K vitaminlar boshqa vitaminlarga qaraganda ko'proqdir.

Salat o'simligiga Yevropa mamlakatlarida katta e'tibor beriladi. Salat Yevropaga XVI asrda va Rossiyaga XVII asr oxirlarida kirib kelgan. Bizda ya'ni O'zbekistonda salat o'simligiga bo'lgan e'tibor juda ham kam. Ayniqsa ishlab chiqarish 0,1 % ni tashkil etadi xolos. Lekin shunga qaramay, ba'zi qiziquvchi xonadonlarda, tarmoqlarda yetishtirib kelinmoqda.

Salat o'simligini ham boshqa sabzavot ekinlari chiqmay turib, arzon narxda kam mexnat va xarajat sarflab axoliga servitamin salat o'simligini yetkazib berishimiz mumkin. Uni o'lka meditsina institut ma'lumotlariga ko'ra, ko'kat ekinlaridan bir yil mobaynida jon boshiga 18-20 kg yoki umumiy sabzavot ekinlarini ya'ni maxsulotlaridan 16,5 % iste'mol qilish odam organizmi uchun zarur xisoblanar ekan. Shundan 3% ni salat o'simligi tashkil qiladi.

Bu o'simlikning seleksiyasi bilan esa, turli mamlakatlarda turlicha yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak AQSh va Kanadada: asosiy e'tiborni o'simlik tarkibidagi vitaminlar va tovorliqlik xususiyatiga qaratilgan. Gollandiyada esa, salat o'simligini tezpisharliligiga etibor berishmoqda, bu navlar; Ostinata, Kondar, Venterra va boshqalar.

Daniyada kasalliklarga chidamli navlari ustida ish olib borilmoqda. Bular Nimpus va boshqalar. Fransiya, Germaniya, Angliyada salat boshlarini kattalashtirish va zich bo'lishligi ustida seleksiya ishlarini olib borishmoqda, xamda tezpishar, kasalliklarga chidamli navlar ustida xam ishlar olib borilmoqda. Salat o'simligini ekish, yetishtirish, parvarishlash va xosilni yig'ishtirishga kelsak. O'simlikning urug'ini ekish oldidan, ularni 2 fraksiyaga ajratib olinadi: yirik va mayda. Bundan yirik urug'larni ajratib olib erta baxorda ekiladi.

Salat bir yillik o'simlik. Salat tez pishar, sovuqqa chidamli, chetdan changlanuvchi, serxosil o'simlik. Uni dalada barvaqt yetishtirish mumkin. Mana shu jixatdan salat boshqa ko'kat ekinlariga nisbatan ancha qimmatlidir. Salat S, A, V va V1 vitaminlarga shuningdek, kalsiy hamda temir tuzlarga nixoyatda boy. Uni qatiq, smetana, qaymoq, suzma, sirka va boshqa taomlarga qo'shib, xomligicha yangiligida qovurib, qaynatib, bug'lab iste'mol etishi mumkin.

Botanik ta'rifi: salatning ildizi tik o'sadi, yuqori qismi ancha serbarg, juda ko'p yoki ildizlar chiqaradi. Bargi bandsiz yopishib o'sadi, bargi bandiga tomon ingichkalashgan, shakli buyraksimon, doirasimon yoki teskari tuxumsimon, bargining cheti bilinar bilinmas qirrali yoki yirtilgansimon, usti tekis to'lqinli ba'zilarida esa mayda g'o'za po'choqsimon, rangi yashil, och yashil va qizil.

Salatning urug' xosil etuvchi tupi tik o'sadi, bo'yi 120 sm ga yetadi yoki yon shoxchalar chiqaradi, rangi och yashil, savasimon gulshodasi 10 – 20 dona ikki jinsli guli sariq. Urug' (mevasi) yassi va uzunchoq, ustida 5 – 7 ta qobirg'asimon yo'llari bor, sarg'ish – kumushrang hamda to'q jigarrang. Urug'ining uchida shamolda uchish uchun moslangan ingichka xartumi

va uchmasi bor. Ming dona urug'ining og'irligi 0.8 – 1.2 gr 1 kg urug'i bir yarim million dona. Urug'i 6 – 12 kunda batamom ko'karadi. 4 yilgacha ko'karish qobiliyatini yo'qotmaydi.

#### **SALATNING 4 XIL TURI BOR**

1. Bargli salat to'pbarg xosil qiladi va birmuncha tez pishishi bilan xarakterlanadi. ekilgandan to bargi uzulguncha 30 – 40 kun o'tadi.

2. Poyasi yulma salat baland bo'yli 40 – 80 sm poya xosil qiladi, poyadan yirik dag'allashmaydigan barglar chiqaradi. Barglari o'sib chiqqan sari birin – ketin yulib olinadi.

3. Bosh o'raydigan salat-to'p barg chiqaradi va kichik bosh o'raydi.

O'suv davri ekilgandan to uzulgunga qadar naviga qarab 40 – 100 kun davom etadi.

4. Romen salat to'pbargli yirik tik o'sadi. Cho'zinchoq barglardan iborat, vertikal joylashgan, yirik to'pbargi ichida bo'sh salat bosh hosil bo'ladi. O'suv davri 70 – 100 kun davom etadi.

Salat sovuqqa chidamli, 50S sovuqda xam o'saveradi, ammo 15-200 S da juda erkin o'sadi. Xarorat 12-140 S da eng pishiq salat boshlari o'raydi. Xarorat bundan yuqori bo'lganda u gulpoya chiqaradi.. ayniqsa, bu xol salat kechikib ekilganda ko'proq yuz beradi. Salat ko'chati yaxshi chiniqtirilsa, yirik o'simliklari 5-60 S sovuqqa bemalol chidaydi. Salat uchun tuproq doim nam bo'lishi zarur. U go'ng, azotli va fosforli o'g'itlarga ekilganda mo'l xosil beradi. Salat yetishtirish barg va bosh o'raydigan. Salat dalaga fevral-mart oylarida yoki dekabrda, janubiy tumanlarda esa kuz-qish va ko'klamda sepiladi. Salat ekiladigan yerlar kuzda tayyorlab qo'yiladi.

Bargli salat uchun aloxida joy ajratmay, uni asosiy ekinlar bodring, kartoshka kechki karam uchun belgilangan yerlarga eksa xam bo'ladi. Salat ekiladigan yer boshqa sabzavot ekinlarniki kabi kuzda xaydaladi, o'g'itlanadi, ekish oldidan ishlanadi. Salat odatda ko'pda sochma qilib yoki seyalkada ikki uch qator qilib ekiladi. Bunda egat orasi 60-70sm qator orasi esa 18-20 sm olinadi. Har gektaga barg salat urug'idan 4-5 kg bosh salat urug'idan 3-4 kg sarflanadi. Maysalar ko'karib chiqqandan 10-12 kun o'tgach birinchi 4-5 ta barg chiqarganda esa ikkinchi marta yagona qilinadi. Yagonalashda bargli salat orasi 8-10 sm bosh salatniki esa 12-15 sm kenglikda qoldiriladi. Salatning bundan so'nggi parvarishi uni vaqtida sug'orishi, o'tashi, qator oralarini yumshatishi va o'g'itlashdan iborat. Bargli salat yetilgan paytida 35-40 kunda bosh salatning esa yetilganlari tanlab uziladi. Yaxshi parvarish qilinganda bargli salat gektaridan 5-6 tonna, boshli salat dan esa 8-10 tonnagacha xosil beradi. Tajriba maydonida o'tkazilgan agrotexnik tadbirlar yuqori saviyada olib borildi. Bu erta baxorda bo'ladigan sovuq xavoni oldini olish uchun qilindi. Oradan 15-16 kun o'tgach urug'lar tekis unib chiqdi. Oradan 10-12 kun o'tkazib xar bir uyada ikkitadan qoldirib yagona qilindi, yagonani tugatgach gektar hisobiga olinganda gektariga 600-700 m<sup>3</sup>ga xisobida suv beriladi. O'simlikni vegetasiya davrida 6 marta sug'orish ishlari olib borildi. Dala nam sig'imiga nisbatan namlik 65-70% qilib turildi, o'simlikni o'suv davrida zararkunandalarga qarshi ikki marta ishlov beriladi. O'zbekistonda salat o'simligini yetishtirish bilan 1980 yillardan boshlangan. Urug'chiligi bilan 1994 yildan boshlab shug'ullana boshlagan bu o'simlikning gul poyasi balandligi, 60-120 sm gacha yetadi. 14-18 tagacha shohlar chiqaradi ularning uchida

sovatchalar hosil qilib gullaydi har bir savatchada 16 tagacha gul joylashadi. Urug'i mayda rangi kumushrang qora, jigarrang bo'lib bir o'simlikdan 10-12 gr gacha urug' olinadi. Salat o'simligidan 2-4 ts/gacha gektaridan urug' hosili olinadi. Hidropon usulda ekilganda salat o'simliklari asosan ko'chatidan gidroponikaga ekiladi ularni urug'lari yopiq joyda yanvar oyini boshida kasetalarga ekilib fevral oyining ikkinchi dekadasida 40-45 kunlik ko'chatlar ochiq gidroponga olib chiqib ekiladi. Ularni parvarishlash asosan eritmalar yordamida soatiga 3-4 marotabadan namlanib eritma aylanib turadi va o'simlikka kerakliy bo'lgan ozuqa elementlari shu orqali yetkazib beriladi o'simliklar qiyg'os o'sib rivojlanadi bargliy salatlar 35-40 kunda, boshliy salatlar 45-55 kunda istemolga yaroqli bo'ladi. O'rganilgan kompleks belgilar bo'yicha eng yaxshi namunalar deb: Bargli salatlaridan Ramses, Bottner va Great Lakes , boshli salatlaridan Aysberg, Tapasso, Romano, Raddico hisoblandi. Farg'ona vodiysi uchun salat o'simligini qish oldidan ochiq dalalarga ekishni eng yaxshi va qulay ekish muddati noyabrning ohiri deb aniqlandi. Hidropon usulida ekilganda esa ko'chatidan fevral oyining boshlarida ekish eng yaxshi muddatlar deb aniqlandi

### **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak salat o'simligi vitaminlarga mineral tuzlarga, oqsil, uglevodlar, organik birikmalarga juda boy. Uni muntazam iste'mol qilib borish natijasida qon bosimini pasaytirishda, ichak kasalliklari oshqozon yarasini davolashda xamda buyrakdagi toshlarni maydalashda katta yordam beradi. Tarkibida Laktusin moddasi ko'p bo'lganligidan nerv hastaliklarini davolashda katta ahamiyatga ega. Yurtimizda bu o'simlikdan 1 mavsumda 3 marta xosil olish imkoni mavjud. Birinchisi ochiq maydonlarga gidropon usulda fevral oyining ikkinchi dekadasida, agar yerga ekilsa tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib erta baxorda, ikkinchi muddat yozda himoyalangan maydonlarda ekish mumkin lekin bunda ko'p sarf harajat ketadi. Uchinchi muddat kuz oylarida, sentyabr oyida ochiq maydonlarga ekish mumkin. Salat o'simligi O'zbekistonda boshqa yevropa mamlakatlari kabi ko'p iste'mol qilinmasada juda ko'p foydali xususiyatlari mavjud. Salat o'simligini ham boshqa sabzavot ekinlari chiqmay turib, arzon narxda kam mexnat va xarajat sarflab axoliga servitamin salat o'simligini yetkazib berishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rizq-ro'zimiz bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish – asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Xalq so'zi, 2017 yil 17 dekabr, 248 (6942)-son.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Xarakatlar strategiyasi". Toshkent, 2017.
3. Azimov B.J., Azimov B.B. –Polizchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. Toshkent 2002 y.

4. Bo'riev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. T.: «Mehnat», 2000.

5. Ostonaqulov T.E. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi (leksiyalar kursi). Samarqand, 2006.